

TIBBIY TA'LIMDA MOODLE DASTURINING AHAMIYATI

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

TTA "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Qilicheva Farida Sayidmurod qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Tibbiy biologiya" fakulteti 2-kurs 202- guruh talabasi

Abdurahmonova Zuhra G'ulomjon qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Tibbiy biologiya" fakulteti 2-kurs 202- guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola tibbiy ta'lim berishda moodle dasturining ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Maqola Moodle tizimidan yangi foydalanayotganlarning vujudga kelgan savollariga javoblarni o'zida mujassamlaydi.*

Tayanch tushunchalar: *Moodle, moodle tizimi, sayt, server, virtual ta'lim muhiti, elektron ta'lim, ta'limning individualligi, ta'lim.*

Moodle elektron o'quv tizimi foydalanishda unchalik murakkab emas. Lekin birinchi bor Moodle tizimi bilan to'qnashgan va uni qanday printsiplar asosida qurilganligi bilan ishlashini bilmaganlarda undan foydalanishda muammolar paydo bo'lishi mumkin. Bunday muammolarga misol qilib foydalanuvchining Moodle tizimini ishlash printsiplarini bilmasligi, muammolarni Moodle tizimida hal qilish printsiplarini bilmasligi misol bo'la oladi. Bularning ichida murakkab va tezkor hal etilishi talab etuvchi, shunga o'xshash ko'plab muammolar to'planib birga kelishi tizimni murakkablashtirib yuboradi, bu esa tizimda foydalanishning "afsona" ga aylantirib qo'yadi. Bunday "afsona" lardan biri oliy o'quv yurtlari tizimida foydalanuvchi moxir dasturchi bo'lishi va u faqat Moodle tizimida ishlashi kerak degan xulosaga olib keladi.

ravishda istagan bilimni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.[2]O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bevosita uning intellektual salohiyatiga bog'liq bo'lganligi bois, ular tomonidan ko'rgazmalilikning keng imkoniyatlaridan foydalanish egallanayotgan bilim mohiyatini teranroq anglashga yordam beradigan bir qatorda, bu tizim o'zining ochiq kodliligi bilan

Moodle – kurslarni boshqarish tizimi "elektron ta'lim", shuningdek, "ta'limni boshqarish tizimi" yoki "virtual ta'lim muhiti" sifatida mashhur. Ingliz tilidagi Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment (obyektga yo'naltirilgan modulli dinamik o'qitish muhiti) so'zlarining qisqartmasi. Onlayn ta'lim uchun saytlar yaratish imkonini beruvchi ochiq (GNU GPL litsenzyasi asosida tarqatiladigan) web dastur hisoblanadi. Hozirda ta'lim jarayonini tashkil etishda, ayniqsa, masofaviy ta'limda keng foydalanilib kelinmoqda.

Moodle tizimi bu masofaviy ta'lim va elektron ta'limni qo'llab quvvatlovchi tizim hisoblanadi. Uning imkoniyatlari bilan tanishib chiqamiz.

Masofaviy ta'lim – zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari vositasida masofadan turib ma'lumotlarni uzatish, qabul qilish orqali ma'lum fan yoki soha bo'yicha o'qitish shakli bo'lib, an'anaviy ta'limga nisbatan o'ziga xos avzalliklarga ega. U bir vaqtning o'zida jamoaning keng qatlamiga ta'lim berishda qo'l keladi. Fan-texnika rivojlanishi tufayli o'quvchilarga berilishi zarur bo'lgan axborot miqdori nihoyat darajada ko'payib bormoqda. Bu axborotlarni talabalarga an'anaviy usul va vositalar yordamida yetkazib berish murakkab vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda talabalarga bilim berish jarayonida masofadan turib o'qitish juda zarur vositalardan biri bo'lib, jahon miqiyosida bu sohada katta yutuqlarga erishilmoqda. Bunga misol tariqasida MOODLE tizimida masofadan ta'lim berishni misol qilib olish mumkin.

Moodle – bu, sayt tarkibiga kirivchi boshqarish tizimi bo'lib, o'qituvchining onlayn-kurs yordamida dars berishiga mo'ljallangan tizimdir. Moodle tizimi asosan mudulli ob'ektga mo'ljallangan dinamik ta'lim muhitini boshqarish tizimi bo'lib hisoblanadi. Moodle tizimining asoschisi Avstraliyaning Curtin universiteti “Kompyuter ilmi va ta'lim” yo'nalishi o'qituvchisi Martin Dougiamas bo'lib, u bu sistemani yaratish g'oyasini 1999 yilda ilgari surdi va 2002 yilda Moodle 1.0 tizimini yaratdi. Bu sistema bepul kengaytirilgan dasturiy kompleks bo'lib, o'zining funksional imkoniyatlariga asosan keng miqiyosida masofaviy ta'lim olivchilarga qulayliklar yaratib beradi. Bugungi kunda moodle tizimidan jahonning nufuzli universitetlari ta'lim berish jarayonida foydalanib kelmoqda. Moodle - masofaviy ta'limni boshqarish tizimining bugungi kunda jahonning 200 ga yaqin mamlakatlarida 70 tilga mo'ljallangan 46 mingdan ortiq ta'lim portallari bo'lib, unga 2 mln ga yaqin foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tkazilgan va ular 300 dan ortiq ishlab chiqaruvchi dasturchilarni o'zida mujassamlashtirgan.

Moodle tizimini quyidagi maqsadlarda ishlatish mumkin:

- masofaviy ta'lim uchun - bunda o'qituvchi va talaba ko'p vaqtda yuzma-yuz uchrashmasdan ta'lim olib boriladi;

- ta'limning masofaviy qo'llab-quvvatlanishi-elektron ta'lim vositalari asosida talabalar Moodle tizimidan foydalangan holda topshiriqlarni olishi va uni tekshirish uchun yuborishlari mumkin;

- amaliy topshiriqlarning, testlarning bajarilishi elektron ta'lim tizimi moodleda o'quv mashg'ulotlari vaqtida amalga oshiriladi.

Moodle tizimi quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

- o'qituvchi va talabaga ta'lim olish uchun qulay vaqt va joyning tanlash imkoniyatining mavjudligi;

- bilimning puxta o'zlashtirilishi;

- o'qituvchi va talabaning kerak bo'lgan vaqtdagina muloqotda bo'lishi. Agar talaba topshiriqlarni o'z vaqtida bajarib borsa, u o'qituvchi bilan muloqotda bo'lib boradi.

- ta'limning individualligi;

- vaqt va pulning tejalishi-o'quv mashg'uloti uchun vaqt va pulning sarflanishiga zaruriyat bo'lmaydi.

Moodle serverga o'rnatiladi, foydalanuvchi tarmoq orqali brouzerlar yordamida unga kirish imkoniyatini oladi.

Tarmoqda "mijoz" kompyuterlar uchun talab unchalik yuqori emas-asosan brouzer ishlasa bo'ldi, shuning uchun hozirgi kundagi mavjud barcha internetga ulana oladigan kompyuterlardan ushbu tizimda foydalana olish imkoni mavjud.

Moodle tizimida foydalanuvchilarning soniga chegaralar yo'q, barcha chegaralashlar serverning texnik xarakteristikasiga bog'liq. Bundan kelib chiqib Moodle tizimini barcha kompyuterlarga o'rnatish kerakmi? Degan savol tug'iladi yo'q, faqat siz foydalanayotgan kompyuter internet tarmog'iga ulangan bo'lsa yetarli.

Moodle bilan yaqindan tanishish uchun uning DEMO-versiyasi mavjud va u quyidagi manzilga joylashtirilgan <http://demo.moodle.net/>.

Moodle tizimini o'rnatish va sozlash. Birinchi sahifada Moodle tizimiga kirish uchun login-parol ko'rinishini tashkil etishda quyidagi amallar bajarilishi kerak; "Administrrovaniya" blogidan "Bezopastnost" tanlanadi va undan "Politiki bezopastnosti sayta" tanlanadi. Yuklangan sahifadan "Prinujdat polzovateley voyti v sistemu" belgilab olinadi.

Foydalanuvchilarning o'zlari mustaqil qayt etilishlari uchun esa, "Nastroyka" blogida ketma-ket "Plagini => Autentifikatsiya => Nastroyki autentifikatsii" ga o'tib, hosil bo'lgan "Samostoyatelnaya registratsiya" ro'yhatidan "Samostoyatelnaya registratsiya po elektronnoy pochte" tanlanadi.

Bir serverdan Moodle tizimini boshqasiga olib o'tish quyidagicha amalga oshiriladi;

- Moodle va Moodle data kataloglaridagi fayllarning nusxasi olinadi.
- Ma'lumotlar ombori (MO) damp ko'chirib o'tiladi. Odatda yaratilgan damp va uning servergadagi izohi phpmyadmin yoki mysqldump yordamida amalga oshiriladi.
- Konfiguratsiya faylida MO ga kirish va kataloglarga yo'l berishda config.php ga o'zgartirish.

Bunday amallarni albatta Moodle tizimi bilan yaxshi tanish bo'lgan foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilganligi maqul, chunki ko'p ma'lumotlarni to'liq ko'chib o'tmay qolishi mumkin shuning uchun quyidagi usul bilan ko'chib o'tish maqsadga muvofiqdir.

- Moodle ning aynan o'sha versiyasini kompyuteringizga o'rnatish
- Eski serverdagi ko'rsatilgan usul bilan arxivlarni zahirasini yaratgan holda nusxa olish
- Arxivni yangi serverga olib o'tib va u joyda arxivlarni qayta tiklash.

Yuklanayotgan faylning maksimal hajmini ortirish uchun Moodle tizimida uchta joydagi holatlarga e'tibor berish kerak, chunki ushbu joylarda hajm bo'yicha cheklashlar qo'yilga bo'lishi mumkin.

- Moodle tizimining o'zida,
- PHP dasturlash tilining sozlanishida,
- Web serverlarni sozlanishida.

Ya'ni uch holatda ham ketma-ketlik tekshirilib, cheklash aniqlanadi va bartaraf etiladi.

Xulosa. Tibbiy ta'lim berish jarayonida moodle tizimi juda qulay hisoblanadi. Bu tizimda keng imkoniyatlar yaratilgan. Masofaviy o'qish, erkin grafik, mustaqil dedlinelar tayyorlash, testlar ishlab bilim darajasini kengaytirish imkoniyatlari bor. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, kompiyuter tizimida ishlash, vaqt tejash imkoniyatlarini beradi. Tibbiy ta'limni kompiyuter texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish yoshlarni zamon bilan hamnafas bo'lishga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуқодиров А.А. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. Монография нашриёти, 2009.
2. Хамидов В.С. Эркин ва очиқ кодли LMS тизимлар таҳлили, infocom.uz журнали №7,8. 14 бет, 2013 й.
3. Turdiyeva G.S., Ismoilova M.N. Masofadan o'qitishning Moodle tizimida ishlash. Buxoro 2014. 66 bet.
4. <http://www.moodle.org>.
5. Zarnigor, N. (2022). RAHBAR PSIXOLOGIYASI VA UNING MEHNATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(24), 121-125.
6. Назарова, З. (2023). ПСИХОСОМАТИК КАСАЛЛИКЛАРДА ПСИХОКОРРЕКЦИЯ ВА ПСИХОПРОФИЛАКТИКА УСУЛЛАРИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 268-272.
7. Olimjonova, Z. B. Q. (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALAR EMOTSIONAL SOHASI PSIXOFIZIOLOGIYASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 311-315.
8. Ахмедова, М. Т., & Нарметова, Ю. К. (2022). "МУОШАРАТ ОДОБИ" ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА УСТОЗ-ШОГИРД МУНОСАБАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 336-340.
9. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.